

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AKT DAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

S. Abdurazzoqova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlariga oid mulohazalar keltirilgan. Asosiy e'tibor axborot texnologiyalaridan nazariy va amaliy foydalanishga va talabalarning mustaqil ishlarida ingliz tilini o'rganish uchun ushbu yondashuvning afzalliklari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, ingliz tili, axborot texnologiyalari, mustaqil ish, AKT, til

doi: <https://doi.org/10.2024/ss6k9m97>

Biz XXI asrni axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asri deb nomladik. Bu bejizga emas, albatta. Chunki biz bu asrda jamiyatning barcha sohalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangidan-yangi texnologiyalar, yangidan-yangi vositalar, texnikalar yordamida barcha ishlar sifatli va samaradorli, tez va oson amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari, nafaqat, ishlab chiqarish, sanoat, qurilish, kosmosni tadqiq qilish va hokazo sohalarda, balki ilmiy, o'quv jarayonlarida ham keng tatbiq qilib kelinmoqda. Hozirgi kunda ta'lim tizimiga masofaviy ta'lim, Internet, Intranet tizimlari atamalari kirib keldi. Hozirgi kunda o'qituvchilar o'quvchilarga ta'lim berishda, ularni o'qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib kelmoqda.

Internet – bu jahon kompyuter tarmoqlari majmui bo'lib, zaruriy ma'lumotlarni qidirishda, turli xil axborot manbalaridagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini berishda uning tutgan roli beqiyosdir. Chet tilini bilish uchun internet tizimida ko'plab elektron o'quv dasturlari mavjud bo'lib, chet tilini o'qitish jarayonida elektron pochta orqali turli saytlarga a'zo bo'lish orqali tegishli ma'lumotlardan foydalanish ham juda keng tarqalgan.

Multimedia texnologiyalari chet tilidagi nutqni tinglashga imkon beradi, bu, shuningdek, so'zlarni so'zlarga ajratish va so'zlarning talaffuzi va imlosini taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek, talabaning aytilgan so'zini yoki iborasini keyingi nazorat va tuzatish uchun yozib olish mumkin. Multimedia texnologiyalari yordamida tovush kartalari foydalanuvchilarga o'z nutqlarini yozib olish va keyin uni so'zlashuvchilarning talaffuzlari bilan solishtirish imkonini beradi.

Kompyuterlarning grafik qobiliyatlari rasm yoki animatsiya ko'rinishidagi har qanday faoliyat turini ifodalashi mumkin. Bu yangi so'z boyligini o'rganishda ayniqsa muhimdir. Grammatika darslarida AKTdan foydalanish har qanday mavzuni o'rganishda juda foydali. To'g'ri joylashtirilgan material, muvaffaqiyatli ishlatilgan ranglar dizayni, jadval va jadvallarni qo'llash o'qituvchilarga o'z

¹ Abdurazzoqova Sabohat Abdurazzoq qizi, SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi, kafedrasi o'qituvchisi

darslarini yanada qiziqarli va rang-barang tarzda o'tkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, AKT yordamida o'rganilgan grammatik ko'nikmalar darajasini boshqarish yanada qiziqarli bo'lishi mumkin.

Biz shunday globallashuv jarayonlarida yashayapmizki, bu jarayonda ingliz tilining tutgan o'rni va ahamiyati kattadir. Ingliz tili Buyuk Britaniya, Kanada, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yangi Zelandiya kabi davlatlarning ona tili bo'libgina qolmay, balki dunyoning bir qator rivojlangan davlatlarida ikkinchi til va chet tili sifatida foydalanilmoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan ingliz tili olamshumul, global, jahon tili deb tan olinmoqda. Shuningdek, ingliz tili o'qib-o'rganishda, biznesda va o'zaro hamkorlik maqsadlarida va boshqa bir qator sohalarda haqiqiy manba bo'lib xizmat qilyapti.

Hozirgi kunda ingliz tilining O'zbekistonda egallagan o'rni, ahamiyati va maqomi juda ham yuqori darajada deb ayta olaman. Chunki hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asrida bu tilni o'rganish zamon talabidir. O'zbekistonning ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan, Prezidentimiz chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi qo'yilishi haqida ta'kidlangandi. Bu esa biz chet tili o'qituvchilarining yelkasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Endi an'anaviy dars metodlari o'rniga yangi AKTdan foydalangan holda interfaol, interaktiv usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishimiz lozim. Bu ta'lim davr talabi ham bo'lib, o'qituvchini o'z ustida yana ham ko'proq ishlashga to'g'ri keladi. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy AKT dan foydalanish juda katta natijalarga olib keladi, o'quvchilarning ta'lim olish samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan ingliz tilini o'qitishda foydalanish muvaffaqiyatli natijalarga olib kelmoqda. Olim Grabe (2005) AKT o'rganuvchilarda motivatsiyani oshiradigan vositadir deb ta'kidlagan. An'anaviy o'qitish tizimining o'rnini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, xususan, prezentatsiyalar, filmlar, videolar, qo'shiq yoki musiqa kabi vositalardan foydalangan holda zamonaviylashgan dars o'tish usuli egallamoqda. Haqiqatan, bu o'quvchilarning darsga e'tibor bilan, qiziqib qatnashish samaradorligini oshiradi.

"Ko'plab xalqaro olimlar, xuddi Klark va Marker, Kogan, Hovsara, Korrigan, Denemark va Nash, Koehler kabilar ta'lim tizimini yangilash, yaxshilash kerakligi haqida fikr yuritmoqdalar. G. Dudeney va N.Hokli kompyuter xonasining tuzilishi bevosita mashg'ulotlarning turlariga ta'sir qilib, ular o'quvchilarni qay tarzda o'rganishiga, ular o'quvchilarni bir-biri bilan va o'qituvchi bilan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi"(Dudeney,Hokli 2008:8) deb ta'kidlashgan.

Olim Richardsning fikriga ko'ra, qachonki material va resurslar talabalarning o'rganish jarayonidagi ehtiyojlari, maqsadlari va o'rganish qulay usullari va strategiyalariga qarab tanlansa, talabalar ulkan hajmdagi haqiqiy til o'rganish materiallari va resurslaridan foyda olishi mumkin (2005). Chindan ham ingliz tilini o'qitish darslarida o'qituvchi har bir talabaga uning darslarni

qay tarzda va qancha darajada o'zlashtirishini hisobga olgan holda darsni tashkil etsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Chet tili darsining eng muhim xususiyatlaridan biri- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatning ahamiyat kasb etishi va an'anaviy chet tili darslarida doimiy muloqotga erishish uchun suhbatdosh yetishmasligidir, chet tilida muloqotlarni amalga oshirish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishning eng qulay yo'li chet tili darslarida kompyuterdan foydalanishdir, bu esa darslar jarayonida bir qator an'anaviy bo'lmagan mashqlarni tashkil etish imkoniyatini beradiki, ular vositasida darslarni qiziqarliroq o'tkazish natijasida talabalarning bilim olishga intilish saviyasi bir muncha oshadi.

Chet tili darslarida orfografiya, leksika va grammatikani o'rganishda kompyuterdan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Kompyuterdan foydalanish ta'limda talabalarning mustaqil ishining tashkil etilishiga ham katta imkoniyatlar yaratadi. Chet tili darslarida kompyuterdan foydalanish, o'qituvchi faoliyatiga yangi talablarni qo'yish, o'quv jarayonini ilmiy tashkil etishni talab qilish bilan birga o'qituvchining ishini bir muncha yengillashtiradi, darsda samaradorlikning oshishiga sharoit yaratadi.

Xususan, ingliz tilini o'qitishda bir qator yangi AKT texnologiyaridan foydalanish zarur. An'anaviy o'qitish tizimidan zamonaviy o'qitish tizimiga o'tish lozim. Talabalarning eshitish mahoratini yaxshilash uchun darslar davomida ingliz tilidagi qo'shiqlarni yoki ertak, qissa, hikoya, ma'lumot shaklidagi treklarni (track) eshittirish, videolar, kinolar ko'rsatish orqali talabalarning eshitish va gapirish mahoratini oshirish kerak. Talabalar prezentatsiyalar tayyorlash orqali mavzu bo'yicha internetdan ma'lumotlar izlab, o'rganib, prezentatsiya tayyorlab, uni o'qituvchi va kursdoshlariga darslarda namoyish qilishi kerak. Kompyuterda mavzu bo'yicha mashqlar bajarish, testlar yechish, o'sha mavzu asosida kompyuter o'yinlari o'ynash talabalarning o'qish samaradorligini va qiziqishini oshiradi.

Talabalarning bilim darajasi har xil bo'lib, an'anaviy darslarda o'qituvchilar talabalarning barchasi bilan muloqot olib borolmaydilar. Bitta talaba bilan savol-javob o'tkazayotganda, boshqalar zerikib qolishi tabiiy holdir. Agar talabalar kompyuterda mavzuni o'qib, mavzudan keyin shu asosida mashqlar ishlasa, yaxshi natija bermasa, yana yaxshi natijaga erishguncha ishlaydi. Buning natijasida talaba yaxshi natijaga erishish uchun mavzuni qayta-qayta o'qib, mashq ishlaydi va kompyuter natijani ko'rsatib beradi. Hozir xilma-xil til o'qitish bloglari yoki ilovalari internetning turli veb saytlari bo'ylab tarqalgan. Misol uchun aytadigan bo'lsak, Kahoot ilovasi hozirgi xorijiy til o'qitadigan o'qituvchilar tomonidan darslarda keng qo'llanilmoqda. Kahoot dasturiga o'qituvchi savollar, topshiriqlar joylashi mumkin va darsda talabalar o'zlarining telefonlaridan yoki kompyuterlaridan bu dasturga kirgan holda bu mashg'ulotlarni bajaradi va natijalari bilan tanishib oladi.

Biz shunday zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari asrida yashayapmizki, bunday davrda zamon bilan hamnafas bo'lib, ingliz tilini o'rganishda qator texnologiyalardan foydalanib, o'rganmog'imiz darkor. Shundagina biz yuksak natijalarga erishib, o'z kasbimizning ustasi bo'lib yetishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Duduney G., Hockly N., (2008). *How to teach English with technology-Edinburg Gate, Harlow* –P. 8-9.

- [2]. Galyana Kozlakova, Oksana Strelchenko-Information and communication technologies in teaching and learning English as foreign language.
- [3]. Grabe & Grabe. (2005). *Integrating technology for meaningful learning*. USA: Houghton Mifflin.
- [4]. Ghasemi, B., & Hashemi, M. (2011). ICT: Newwave in English language learning/teaching. *Procedia-social and behavioral sciences*, 15, 3098-3102.
- [5]. Zepp, R.A., (2005). Teachers perceptions on the roles on educational technology. *Educational Technology & Society*. 8 (2): 102-106.
- [6]. Melikova, G. T. (2021). Chet tilini oqitishda yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 551-555.
- [7]. Tashpulatova, N. S., Xolboyeva, M. I. Q., & Egamqulova, N. O. Q. (2022). Chet tilini o'rganish jarayonida aktdan foydalanish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 305-308.
- [8]. Abdurazzoqova S. A., Ergasheva M. S. (2024). Importance of using ict in teaching listening skills at schools. "Pedagogs" international research journal, 51(1), 161-166.
- [9]. Abdurazzoqova S.A. (2022). The use of information and communication technologies in teaching writing skills in English classrooms. *International conference: International and national values along great silk road: language, education and culture*.1(1).474-477.